

ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

Open Access, Peer Reviewed Journal

Scientific Journal



www.inno-world.uz

+998 33 0178868



TASVIRIY SAN'ATDA PORTRET JANRINING O'RNI VA TARIXIY PORTRET ISHLASH YUZASIDAN METODIK TAVSIYA

Azizova Xilola Egamberganovna

Urganch davlat pedagogika instituti

Aniq va amaliy fanlar fakulteti

san'atshunoslik kafedrasida Stajor o'qituvchisi

Ibragimova Mahbuba G'ofurjon qizi

UrDPI Aniq va amaliy fanlar fakulteti talabasi

ANNOTATSIYA

KALIT SO'ZLAR

janr, portret, rassom, rang,
idrok, tafakkur, tasavvur..

Rassom-rassom bo'yoqlar bilan yozadi va ular bilan ishlashning juda ko'p usullari, usullari mavjud, ular murakkab va xilma-xildir, bu butun bir fan. Lekin rasmda ko'rsatilgan narsaga qarab, uning janrini belgilashingiz mumkin. Tasviriy san'atning eng murakkab janri bo'lgan portret, uning qisqacha tarixi, ma'nosi hamda inson qiyofasini tasvirlashda psixologik holatlarni ifodalashdagi ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan.

Tasviriy san'at o'quv predmeti har bir inson uchun zarur bo'lgan badiiy madaniyatga doir elementar bilim va malakalar beradi. Chunki, har bir o'quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar u ishdan tashqari vaqtlarida dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi kerak bo'ladi. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan san'at asarlari bilan muzey, ko'rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi. Tasviriy san'atning tur va janrlari mana shunday vazifani bajaradi. Ular orasida portret o'zining alohida o'rniga egaligi bilan ajralib turadi. Tasviriy san'atning janrlaridan biri portretdir. "Portret" frantsuzcha "portrait" so'zdan olingan bo'lib, kishilarni chehrasini xuddi o'ziga o'xshatib tasvirlash ma'nosini bildiradi.

Portret janrida real hayotda mavjud bo'lgan yakka, ikki yoki bir guruh kishilar yoki rassom tasavvurida paydo bo'lgan xayoliy qiyofalarning tasviri aks ettiriladi. Rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, shuningdek, foto san'atining muhim janrlaridan biri hisoblanadi. Portret janrida insonning ichki va tashqi gozalligi, uning xarakteri ochib beriladi. Portret bilan haykaltaroshlikdagi portret bir-biriga yaqindek tuyuladi. Ularning birida tekis, kul rangli tasvir bolsa, ikkinchisida boshning butun xajmiy shakli tasvirlanadi. Lekin buturdagi sanatlarga aloqador bolgan portretlar mazmun jihatdan bir-biridan farq qiladi. Portretda jonli kozning jozibasining, yuzga tushayotgan soya va nurlar farqini ranglar jilvasini, insonlarning ichki dunyosini, xarakatini ko'rsatishga qodirdir. Bundan tashqari portretda kolorit ham muhim o'rin egallaydi. Qadimiy Rus tasviriy san'atida XVIII-XIX asrlarda portret janri bir oqimda emas, balki bir necha tarmoqlarda amalga oshirila boradi. Partret insonning shunday tasviridirki, unda nafaqat tashqiyofa, balki ichki dunyo va psixologik

xususiyatlar ham ochib beriladi. Portret biror shaxsga xos bo'lgan tashqi qiyofani, uning ichki dunyosi, xarakterini aks ettirish bilan birga, ma'lum tarixiy davrga xos fazilatlarini ham siymolarda haqqoniy ifodalabberadi. Insonning ichki kechilmalarini uning yuz tuzilishi, nigohi, yurish-turishi va kiyimida ko'rish mumkin.

Tasviriy san'atning eng murakkab janrlaridan biri odam yuzini tasvirlash bo'lib, bu rassomdan shakl, nisbat va ranglarni mohir ustasi bo'lish bilan birga, odam shaxsini, yaxshi tushunishi, uning psixik holatini idrok eta olishi, uning his-tuyg'ularini ko'ra olishi, yuz tarangligi, yuzdagi rangni rasm ishlayotgandagi holatiga mos kelishi, kishining yuragidagi bo'layotgan o'zgarishlarni, psixik hayajonni real holda ifodalash malakalariga ham ega bo'lishi kerak, chunki, asar tasvirdagi kishini kimligini, yoshini, fe'lu-odatini, amal-unvonini, hatto gavda tuzilishi, boy-kambag'alligini ham ko'rsatib berishi lozim. Har bir inson o'ziga xos murakkab va shu bilan birga qiziqarli xarakterga ega bo'lib, xilma-xil obrazlarga boy xayoti portretda yetakchi o'rinni egallaydi.

Portret san'ati bir necha ming yillik uzoq tarixga ega. Qadimgi Misrda inson qiyofasini tasvirlashda haykaltaroshlarning o'rni beqiyos bo'lgan. Ular insonning ichki hissiyoti va kechinmalarini ko'rsatib bermagan bo'lsalarda, odam tasvirini o'ziga o'xshatib tasvirlashda etarlicha aniqlikka erishganlar. Qadimgi grek usta hunarmandlari xudolar va afsonaviy qahramonlar, shoir, faylasuf va mashhur shaxslarining obrazlarini ideallashtirgan holda tasvirlashga harakat qilganlar. Bu bilan ular o'zlarining go'zallik va nafosat olamiga bo'lgan munosabatlarini badiylashtirgan. Keskin insoning psixologiyasi va xarakterini juda aniqlik va haqqoniylik bilan ifodalaganlar.

Portretni turli ko'rinishlari mavjud:1) samimiy, mussavir tor doirada ma'lum bo'lgan insonga hos xususiyatlarni yanada bo'rttirib, oshkora ifodalaydi. Tantanavor, ommaviy joylarga mo'ljallangan mashhur kishilar portretlari. Ulardan tasvirlangan insonning ko'rsatgan xizmatlari, jamiyatdagi o'rni, unga monant libos, interyer, buyumlar ifodalanadi;2) timoiy, keng doiradagi hamjamiyat sinfining turmush tarzi;Psixologik, unda xarakter yuksak badiiy mahorat bilan ifoda etiladi. Portretda bosh va qolning bilakdan pastki qismi muhim ahamiyatga ega, surat chizayotgan kishi tomoshabin nigohini birinchi navbatda shu omillarga jalb qilmogi kerak. Insonga xos xarakterni ifodalashda qo'l katta ahamiyatga ega. Ko'pchilik odamlar qol imo-ishoralari komagida suhbatlashadilar va bu xususiyatlar ham xarakterni yoritishda yordam beradi. Portret, inson qiyofasini tasvirlash uchun juda murakkab jarayondir. Portret inson obrazini yaratish tasviriy san'atda eng murakkab janr hisoblanadi. Har bir rassom portret ishlaganda uning kompozitsion yechimi, g'oyasi va mazmunini ochib berishga xarakter qiladi. Asarni ishlash jarayonida har biri ijodkor uning koloritiga, rang nisbatlariga va qo'shimcha detallarga e'tibor bergan holda, uning kompozitsion yechimini topdi. Portret asosida aniq shaxsning qiyofasini abadiylashtirish yotadi. Portretning muhim tomoni tasvirning tasvirlanuvchi (model, asli) ga aynan o'xshashligidir. Ijodkor portret orqali tasvirlanuvchi shaxsning ma'naviy dunyosini, ijtimoiy hayotdagi o'rnini, kasbi, jamiyatdagi mavqeini aks ettiradi va

uning shu jihatlari orqali davr xususiyati, siyosiy -iqtisodiy ahvol haqida ma'lumot bera oladi.

Rassomning kasbiy mahorati, Portret ishlash uchun tanlangan materiallari esa uning yaratgan asarlariga takrorlanmas o'ziga xoslik baxsh etadi. Tarixan portretning xilma-xil tur va ko'rinishlari shakllangan: ishlanish usuli, bajaradigan vazifasi, shakli, mazmuniga ko'ra, dastgoh (kartina, byust, grafika varag'i) va monumental (monu-mental xaykal, freska, mozaika), miniaturali, ishqiy, tan-tanavor parad va intim, hajviy, satirik portret tarzida tasvirlanuvchining faqat bosh qismi, beligacha, butun bo'y-basti bilan old va yon tomonidan ishlanishi mumkin. Shuningdek, turli tarixiy davrlarda nishon, tanga, medallar yuzasiga (medal yasash san'ati) ishlangan, gemma (gliptika), medalyonlardan miniatura portret keng tarqalgan. Portret janridagi bir asarda ko'pincha bir necha janrlar qo'shilishi mumkin. Portretda tasvirlanuvchi sof holda (zaminsiz, ya'ni atrof-muhitni aks ettirmasdan), tinch holatda yoki biror faoliyati bilan ma'lum muxitda ishlanishi mumkin. Shu tufayli shartli ravishda Portretni portret va portret-kartina (janrli portret) ga ajratiladi.

Portretning keng tarqalgan turlaridan biri -avtoportretdir. Avtoportret bu-rassom o'zini o'zi oynaga qarab yoki o'zining fotosidan foydalanib chizishidir. Tasvirlanayotgan kishilar soniga ko'ra portret, yakka qo'shaloq va guruh portretlarga bo'linadi. Portret san'ati bir necha ming yillik tarixga ega bo'lib, qadimda paydo bo'lgan. Misrda haykaltaroshlar odamning ichki hissiyotlariga chuqur kirib bormasalarda, uning tashqi qiyofasini yetarli aniqlik bilan o'xshatganlar. Grek ustalari esa xudolar va afsonaviy qahramonlarning, shoir, faylasuf va jamoat arboblarning siymolarini ideallashtirilgan holda tasvirlab o'zlarining go'zallik olamiga munosabatlarini plastik yechim bilan ifodalaganlar. Keskin psixologik harakterlilikni hayron qolarli darajada haqqoniylik bilan qadimiy rim portret-haykallari ham alohida ajralib turadi. O'zining paydo bo'lishi bilan buyuk yangilik bo'lgan timsoliy-ramziy ahamiyatga molik bo'lgan portretlar Misrda eramizdan avvalgi IV asrlarda yaratilgan rangtasvir portretlari ishlanganligi ma'lum bo'ldi. Keyinroq bu portretlar ular topilgan joyni nomi bilan "fayum portretlari" deb ataldi. Qadimgi Misrda portretning noyob na'munalari (haykaltaroshlikda -Exnaton, Nefertiti va boshqa haykallar) yaratiladi. Yunonistonda shoir, faylasuf va davlat arboblarning umumlashma, ideallashtirilgan haykal portretlari ishlanadi (haykaltarosh Alopekli Demetriy, Lisipp va boshqalar), ellinizm davrida dramatik obrazlar yaratishga intilish kuchaydi. Antik davr xaykaltaroshlik portreti qadimgi Rim san'atida yuksak cho'qqisiga ko'tarildi, aniq shaxsga e'tibor oshdi. Portretda shaxsning individual fazilatlarini aniq ko'rsatish, ruhiy kechinmalarini ochish jarayoni sezilarli o'rin egalladi, haykal va byustlar bilan bir qatorda tanga va medallar, gemmalarga portret, shuningdek, rangtasvir portret ishlash keng tarqaldi. Dastgoh portretning rangtasvir na'munalari bo'lgan fayyum portretlari (Misr, 1-4-asrlar) ham antik san'at an'analari tasirida rivojlandi. O'rta asrlarda qat'iy diniy qonunlar bilan cheklangan portret cherkov-me'moriy ansamblining ajralmas qismiga aylandi. Ijodkorlar portretda podsho, din ahllarining obrazlarini

yaratdilar, diniy mazmundagi portretlarda aniq shaxslarning fazilatlari, xususiyatlarini ifodalaydilar. O'rta asrlar xitoy ustalari asarlarida aniq shaxslar ko'pincha o'ziga xos fazilatlari bilan, Yapon rassom va haykaltaroshlarining ayrim portretlarida o'tkir psixologik holat aks ettirildi. Portret san'ati o'zining eng gullagan davrini Uyg'onish davrida oldi. Bu davrda oliy-yuqori yangilikning boshlanish sifatida inson shaxsining ulug'lanishi san'atdagi olamshumul boylik va qahramonlik deb sanaldi. Uyg'onish davrida portretning rangtasvir, haykaltaroshlik va grafika turlari yuksak taraqqiy etdi. Faol, o'z qadr-qimmatini biladigan qo'rqmas, jasur inson qiyofasi bu davrning bosh qahramoniga aylandi. Borliqni ilmiy asosda o'rganish va shu bilimlarni amaliyotda qo'llashga intilishlar portretning yangi tizimini yuzaga keltirdi. Endilikda tasvirlanuvchi noreal makon va muhitda emas, balki insonga yaqin bo'lgan tabiat qo'ynida aks ettildi. Monumental rangtasvir asarlarining personajlar orasida rassom o'zining qiyofasini ham ishlay boshlaydi. Bu jarayon keyingi davr san'atida yanada rivojlantirildi (rassom Jotto, Mazachcho, A.del Kastano, D.Girlandayo, S.Bottichelli, Pyero dela Francheska, J. Bellini, haykaltarosh N. Pizano, Donatello, A. Verrokko, dastgoh haykaltaroshligida Deziderio da Settinyano, Antonio Rossellino, medallarda A. Pizanello).

Portretda bosh va qo'lning bilakdan pastki qismi muhim ahamiyatga ega, surat chizayotgan kishi tomoshabin nigohini birinchi navbatda shu omillarga jalb qilmog'i kerak. Insonga xos xarakterni ifodalashda qo'l katta ahamiyatga ega. Ko'pchilik odamlar qo'l imo-ishoralari ko'magida suhbatlashadilar va bu xususiyatlar ham xarakterni yoritishda yordam beradi. Portretda ko'z murakkab joylardan biri bo'lib, o'ta aniqlikni va tafakkurni jamlashni talab etadi. "Ko'z – qalb ko'zgusi" deyiladi xalq maqollarining birida. Har bir ishni kompozitsiyadan boshlash va uning echimini topish uchun bir necha qoralama va tezkor rangli etyudini bajarish maqsadga muvofiqdir. Bu tayyorgarchilik yaratilajak portretning kompozitsiyasini tanlab olishga, nisbatlar va rang echimlarining to'g'ri topilishiga yordam beradi. Detallarni ishlab chiqqandan so'ng ular umumlashtiriladi, xarakterli joylari belgilanadi va ortiqcha narsalardan voz kechiladi. Bu bosqichda umumiylik, yaxlitlik va uyg'unlik ustida ish olib boriladi. Portret ishlashda detallarning qanday ashyodan ekanligini ifoda etish muhim ahamiyatga ega. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida bolani ko'rish a'zolari takomillashib boradi. Chunki, har bir mashg'ulotda narsalarni e'tibor bilan kuzatishga va ularni idrok etishga o'rgatib, bolani diqqat-e'tiborini bir nuqtaga qaratish malakasi ham beriladi. Bu jarayon bolani ixtiyoriy diqqatini barqaror bo'lishini ham ta'minlaydi. Shuningdek, tasviriy san'at mashg'uloti o'quvchilarni e'tiborli, zehn bilan faoliyat ko'rsatishga o'rgatib, ularni barcha his-tuyg'ularini jamlagan holda, o'zida bo'lgan nazariy va amaliy bilimlarni ishga soladi. Butun vujudi, aql-idroki, tasavvur-tafakkuri bilan faoliyat ko'rsatishga olib keladi. Shu boisdan nemis pedagog rassomi P.Shmitning, - "Tasviriy san'at mashg'uloti aql gimnastikasi" - degan xulosasi mutloq to'g'ridir.

XX asrning ikkinchi yarmida o'zbek portretchi rassomlaridan Lutfilla Abdullayev, Abdulhaq Abdullayev, Rahim Ahmedov, Malik Nabiyeu, Zokir

Inog`omovlar samarali ijod qildirlar. L.Abdullayevning "Mulla To`ychi Toshmuhamedov", "Yo`ldosh Oxunboboyev portreti" nomli asarlari real rangtasvirning mohirona ishlangan gultoji hisoblanadi.

A.Abdullayev ilk o`zbek milliy portretchi ustoz rassomlaridan biri. O`zbekiston tasviriy san`atida o`zining yuksak ijodi bilan mazmunli va sermahsul ijod qildi. "Abror Hidoyatov Otello rovida" asari orqali Otelloni o`ychan boqishi, gavda harakati portretga romantik ko`tarinkilik ruhini baxsh etgan. Unda yuz ifodasi psixologik holati mohirona tasvirlangan. "Oybek portreti" asari orqali muallifning chuqur ma`noga ega sara asarlaridan biri hisoblanadi. Rassom "Oybek portreti"da o`zbek buyuk adibining xarakteri va ichki hissiyotlarito`laqonli ochib berilgan. Rassom o`z asarida insonning ichki kechinmalarini qiyofasida tasvirlabgina qolmay, barcha egzu insoniy hislatlarini, fazilatlarini, psixologiyasini yoritib berish orqali buyuk o`zbek yozuvchisining jonli obrazini yarata oldi.

Rahim Ahmedov qalamiga mansub "Surxandaryolik ayol", "Ona o`ylari", "Dehqon" kabi asarlarida inson obrazini, uning ichki kechinmalarini hamda his-tuyg`ularini, yuksak orzularini va go`zal insoniy qalbini ochib berishga harakat qilgan va buning uddasidan chiqa olgan.

Xullas, tasviriy san`at darslari o`quvchilarni har tomonlama rivojlanishi asosi bo`lib qoladi, bunda uni o`rni va roli benihoyat kattadir. Tasviriy san`at inson zotini mehnatga, aql-idrokka, tafakkur qilishga, ijod qilishga, go`zallikka intilishga o`rgatib, unda chiroyli, go`zal ma`naviy dunyosini yaratib keldi. Shuningdek, kuzatishlar va ilmiy tadqiqotlar shuni ko`rsatmoqdaki, tasviriy san`at yoshlarga faqat ilm-tafakkur, go`zal estetik ideallar beribgina qolmay, odam zotini eng muhim jihatlarini, ya`ni kuzatish, ko`rish, idrok qilish va tafakkur-tasavvurlarini rivojlantiradigan bosh va asosiy vosita ekanligi isbotlanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Sulaymonov. Tasviriy san`at ta`limi sifati va samaradorligini oshirishning didaktik imkoniyatlari. T.: 2017 y.
2. R.Xasanov. Maktabda tasviriy san`atni o`qitish metodikasi. T.: 2004 y.
3. Jaborov. Rangshunoslikka oid ayrim atama va iboralarning izohli lug`ati. T.: 2001y.
4. B.Oripov. Tasviriy san`atni o`qitish metodikasi. N.: 2007 y.
5. N.Abdullayev. San`at tarixi elektron o`quv qo`llanma. T.: 2005 y.
6. A.Эгамбердиев. Жанровая Живопись Узбекистана. T.: F.Фулям, 1989
7. Abdirasilov S., Tolipov N., Oripova N. Rangtasvir. –T.: "O`zbekiston", 2006.
8. Abdirasilov S., Boymetov B., Tolipov N. Tasviriy san`at. –T.: "Cho`lpon" nashriyoti. 2012.
9. Abdirasilov S. Tasviriy san`at va uni o`qitish metodikasi. –T.: "Ilm-Ziyo" nashriyoti. 2011.